



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 454 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	




The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
Shermatova Yakut Sabirovna	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
Turdiyeva Zilola Jalilovna	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
Xalikova Umida Mirovna	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна	
Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari	156
Kushakova Gulnora Egamkulovna	
Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish	160
Normurodova Gulnora Ikromovna	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari	164
Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi	
Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri	168
Jurakulova Dildora Ziyadullayevna	
Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	172
Kazakova Saxiba Abdurayimovna	
Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari.....	178
Ziyayev Adxamjon	
Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini	182
Jo'rayeva Nozima Nozim qizi	
Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi	185
Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	189
Teshaboyeva Feruza Raximovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri.....	192
Ashirova Sojida Baxromovna	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari	196
Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna	

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	200
Jabborova Salomat Abdijalilovna	
Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	204
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish	208
Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi	213
Raximova Xurshidaxon Sadikovna	
Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	217
Xalikova Nargiza Abduvaliyevna	
Tilning obrazli kuchi: perifrazalar turlari va xususiyatlari	221
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	224
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi	
Mentorlik faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish	229
Zikriyayev Zokir Mamirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish.....	232
Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, Sunnatullayeva Amina	
Professional kompetentlik va uning shaxs psixologik xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi	235
Artikova Nodira Shavkat qizi	
Talaba qizlarni jismoniy faolligini rivojlantirish tasnifi va ularni orgatish metodikasi.....	240
Otasheva Oysanamxon Hamidulla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik	245
Bekchanova Kuvanch Roximovna	
Voleybolchilarni tayyorlashda differensial vositalaridan foydalanishning zarurligini, ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari	249
Kambarov Kozimjon Ibragimovich	
2-toifa diabet bilan bog'liq stressga qarshi kurashish strategiyalari va psixologik holatlar	254
Sadikova Umida Botirovna	
Boshlang'ich ta'limda vizual va multimediyaviy texnologiyalarning pedagogik-psixologik ahamiyati	258
Raximova Faridabonu Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida VARK modeli asosida multimodal o'qitishni tashkil etish (OAK talablariga mos maqola).....	261
Raximova Mushtariy Alisher qizi	
Raqamli ta'lim muhitida veb-texnologiyalar asosidagi platformalarning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va optimallashtirish	264
Zoxidov Jahongir Botirxonovich	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini umumta'lim jarayonida ona tili darslarida rivojlantirish metodikasi.....	272
Isoqjonova Dilfuzaxon Muxtorjon qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni mustaqil ta'lim jarayonida kasbiy malakani shakllantirishning samarali metodlari	276
Teshabayeva Oyguil Fazliddinovna	
Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasiga o'ziga ishonch va o'z-o'zini qadrlashning ta'siri	280
M. R. Sultonova	
Shifoxonalarda tashkil etilgan maktablarda bemor o'quvchilar bilan faoliyat olib boruvchi pedagoglarga qo'yiladigan talablar	284
Umarova Saboxon Minavvarovna, Abdusattorova Gulxumor	



Chet til ta'limida mustaqil ishni tashkil etish masalalariga doir	287
Erkayev Elmirza Temirovich	
10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirish metodikasi.....	294
Ishmuratov Hasanboy Karimjonovich	
Jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining samaradorligini oshirish usullari	298
Yaqubov Arslon Maxmudovich	
Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati va uning o'rganilishi	301
Dinora Eshboyeva Alisher qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish. Axloqning kelib chiqishi va asoslanish masalasini nazariy tahlil qilish	306
Shaxayev Bauirjan Seytgalievich	
Maktabgacha ta'limda STEAM ta'lim texnologiyalarini qo'llashda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	310
Ahmedova Zuhraxon Mamurovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi va zaruriyati	314
Mirzabayeva Zebo Umarovna	
Elektrolitlarda elektr toki mavzusini o'qitishda noto'g'ri tasavvurlar va ularni bartaraf etish metodikasi	317
Xoliqov Qurbonboy To'ychiyevich	
Mediata'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya faoliyatini takomillashtirish .	323
Ibodullaeva Dildora Shukrulla qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda montessori metodikasining uyg'unligi	327
Ismatova Shodiya Ne'matilla qizi, Xaydarova Shaxlo Narzullayevna	
XIV asr oxiri va XV asr boshlari turkiy tillar taraqqiyotini o'rganishda "Kitob ul-Bulg'at" asarining lingvistik tadqiqi	332
Tursunaliyeva Muslimabonu Abduvosit qizi	
Informatika ta'limida interfaol o'quv majmualari asosida o'yinli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish.....	336
Nabiyev Feruz Abdumannonovich	
STEAM loyihalari asosida maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish.....	341
Choriyor Maxmatraimov Eshmatovich	
Psixolog talabalarda tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish	345
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna	
Raqamli ta'lim muhitining pedagogik salohiyati asosida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish (texnologiya fanini o'qitish misolida).....	348
Kulboyeva Dilnoza Abdug'ofurovna	
O'zbek tili – faxrim, g'ururim	351
H. Shukurova, M.Jumanazarova	
Zamonaviy dars – pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni.....	355
M. Kuzibayeva	
Talabalarni ta'lim jarayonida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	358
Mastonov Jahongir Mamatqul o'g'li	
Raqamli maktabda yashil o'quv dasturi: kengaytirilgan va virtual reallik texnologiyalari bilan integratsiyaning pedagogik modeli.....	362
Maxmudov Abdiqodir Yusupovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbiy faoliyat jarayonida pedagogik empatiyani shakllantirish pedagogik muammo sifatida	367
Orinbaeva Jarqinay Djuginis qizi	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	371
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova	

Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi muammolari	377
Sh. A. Xujakulov, T. B. Kadirov	
Uzoq muddat davolanayotgan bolalarning matematik savodxonligini oshirishda fanlararo bog'lanishning roli.....	383
Tursunova Dildora Ziyadullayevna, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li	
Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning "Maorif" asarida bilish etikasi va ma'naviy-axloqiy tarbiya	387
Tursunova Nilufar Samiyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	393
Tursunova Saidra Isakovna	
Yosh avlodni tarbiyalashda hamkorlik tarbiya texnologiyasining o'rni	396
Pirlijeva Gulmira Botir qizi	
Integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o'quv majmuallardan foydalanish muammolari va rivojlanish istiqbollari.....	400
Nabiyev Feruz Abdumannonovich, Mamanazarov Baxrom Jumonovich	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatda bilish jarayonlarini rivojlantirish	405
Sadirova Kamola Giyozovna	
Kurash sport turining yoshlar jismoniy va ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati.....	409
O'razboyeva Adiba Abdug'ani qizi	
Bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashning pedagogik yondashuvlari.	413
Xalmuxamedov Bobir Taxirovich	
О развитии учебно-познавательной деятельности студентов	418
М. Халикова	
Психологические механизмы искажения истины в процессе социализации: нормативно-когнитивная модель и смешанное эмпирическое исследование	421
С. Ю. Нишанов	
Методы повышения речевой активности студентов в процессе обучения иностранному языку.....	425
Утешова Зернегул Хурметуллаевна	
Prenatal va erta chaqaloqlik rivojlanishi va rivojlanishning biologik asoslari	429
N. Mirbabayeva	
O'smir shaxsining rivojlanishi	433
Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
O'zbekistonning ma'naviy va madaniy hayotida jadidlarning tutgan o'rni	435
N. M. Qodirova	
Development of Physical Qualities Through the Use of Special Physical Exercises With Student Participation.....	439
Rikhsiev Dilshod Shavkatovich	
Tabiiy fan darslarida STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati	442
Umaraliyeva Baxtilaxon Raxmonali qizi	
Special Physical Exercises in Coxarthrosis During the Preoperative and Postoperative Periods of Rehabilitation.....	446
Valiev Farrukh Nigmatjonovich	
Роль цифровых технологий и дидактических принципов в учебных практик.....	449
Байметов М. М.	



BO'LAJAK SURDOPEDAGOGLARNI MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA KASBIY MALAKANI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI

Teshabayeva Oygul Fazliddinovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari"
kafedrası dotsent v.b. PhD

Annotatsiya: Maqola bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini mustaqil ta'lim jarayonida shakllantirishning samarali metodlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning maqsadi - mustaqil ta'limning pedagogik samaradorligini aniqlash hamda refleksiv-faoliyatli metodlarni amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Muallif innovatsion metodlarni tizimli ravishda qo'llash orqali kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvni taklif etadi. Olingan natijalar pedagoglarning kasbiy ko'nikmalari sezilarli darajada oshganligini tasdiqlaydi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi mustaqil ta'lim asosida refleksiv va amaliy komponentlarni integratsiyalashgan holda birlashtiruvchi modelni ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: surdopedagog, kasbiy kompetentlik, mustaqil ta'lim, refleksiv yondashuv, maxsus ta'lim.

Abstract: The article examines effective methods for developing the professional competence of future surdopedagogues through independent learning. The aim of the study is to assess the pedagogical effectiveness of independent learning and to implement reflexive-activity methods in practice. The author proposes a systematic approach to competence development through innovative methods. The findings confirm a significant improvement in teachers' professional skills. The scientific novelty lies in the development of a model that integrates reflexive and practical components within the framework of independent learning.

Key words: surdopedagogue, professional competence, independent learning, reflexive approach, special education.

Аннотация: Статья посвящена исследованию эффективных методов формирования профессиональной компетентности будущих сурдопедогогов в процессе самостоятельного обучения. Цель исследования - определить педагогическую эффективность самостоятельного обучения и внедрить рефлексивно-деятельностные методы в практику. Автор предлагает системный подход к развитию компетенций посредством инновационных методов. Полученные результаты подтверждают значительное повышение профессиональных навыков педагогов. Научная новизна заключается в разработке модели, интегрирующей рефлексивные и практические компоненты на основе самостоятельного обучения.

Ключевые слова: сурдопедagog, профессиональная компетентность, самостоятельное обучение, рефлексивный подход, специальное образование.

KIRISH

2026-yilga kelib, maxsus ta'lim tizimidagi integratsiya va inklyuziv jarayonlar bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlash sifatiga nisbatan yangi talablarni qo'yimoqda. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda zamonaviy surdotexnik vositalar - koxlear implantlar, raqamli eshitish apparatlari - hamda neyropedagogik metodikalar pedagogning kasbiy kompetentligini doimiy ravishda oshirishni taqozo etadi.

Oliy ta'limdagi o'quv soatlarining cheklanganligi sharoitida bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligining asosiy qismi talabaning mustaqil o'quv-biluv faoliyati hisobiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, mustaqil ta'limni shunchaki ma'lumot to'plash jarayoni sifatida emas, balki kasbiy kompetentlikni shakllantiruvchi metodologik tizim sifatida tadqiq etish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, maqolaning ob'ekti - bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, predmeti esa mustaqil ta'lim jarayonida kasbiy malakani shakllantirishning samarali metodlari hisoblanadi. Tadqiqot maqsadi - mustaqil ta'lim asosida surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion va amaliy jihatdan samarali usullarini aniqlashdan iborat.



Ushbu maqola quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan: mavjud nazariy manbalarni tahlil qilish, mustaqil ta'limda samarali metodlarni aniqlash, tajriba-sinov orqali ularning amaliy samaradorligini baholash hamda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish hamda mustaqil ta'lim jarayonining pedagogik imkoniyatlarini o'rganish masalasi maxsus pedagogika va professional ta'lim nazariyasida alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Mazkur muammo mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan kompetensiyaviy yondashuv, faoliyat nazariyasi hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi doirasida o'rganib kelinmoqda.

Z.N. Mamarajabova tadqiqotlarida maxsus pedagoglarni tayyorlash jarayoni kasbiy kompetentlikni bosqichma-bosqich shakllantirish tizimi sifatida talqin etiladi. Olimaning fikricha, surdopedagog faoliyatining samaradorligi faqat nazariy bilimlar hajmi bilan emas, balki pedagogning diagnostik, kommunikativ va refleksiv tayyorgarligi bilan belgilanadi. U kasbiy rivojlanishda mustaqil o'quv faoliyatining motivatsion omil sifatidagi rolini alohida ta'kidlaydi, biroq mustaqil ta'lim metodlarini tizimli model sifatida to'liq ochib bermaydi.

X.N. Muzaffarova maxsus ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarni individuallashtirish masalasiga e'tibor qaratib, o'quv jarayonida faol metodlardan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishini ilmiy asoslaydi. Uning ishlari pedagogik jarayonni tashkil etish mexanizmlarini yoritadi, ammo mustaqil ta'limning kasbiy malaka shakllanishiga bevosita ta'siri yetarli darajada tahlil qilinmagan.

D.A. Nurkeldiyeva bo'lajak defektologlarning kasbiy tayyorgarligini diagnostik faoliyat orqali rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda pedagogning amaliy kompetensiyasi real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali shakllanishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, mustaqil ta'limni refleksiv rivojlanish vositasi sifatida qo'llash masalasi cheklangan doirada yoritilgan.

L.R. Xayitov surdopedagogika nazariyasini rivojlantirib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda pedagogning amaliy tayyorgarligi ustuvor ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi. Olim nazariya va amaliyot integratsiyasi zarurligini qayd etadi, biroq ushbu integratsiyani mustaqil ta'lim orqali amalga oshirish mexanizmlari alohida tadqiq qilinmagan.

D.B. Yakubjanova ishlarida mustaqil ta'lim innovatsion pedagogik muhitning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. U mustaqil topshiriqlar, loyiha faoliyati va interaktiv metodlarning talabalarda kommunikativ hamda kasbiy mustaqillikni rivojlantirishini ko'rsatadi. Biroq surdopedagoglar tayyorlash kontekstida metodlarning tizimli modeli ishlab chiqilmagan.

Xorijiy tadqiqotchilardan N.A. Abramova pedagogik kompetentlikni shaxsning uzluksiz professional rivojlanish jarayoni sifatida izohlab, mustaqil o'qish faoliyatini o'zini-o'zi rivojlantirish mexanizmi sifatida baholaydi. A.V. Arnautov esa interaktiv pedagogik texnologiyalar talabaning faol o'quv sub'ekti sifatida shakllanishiga xizmat qilishini asoslaydi. Uning fikricha, mustaqil ta'lim pedagogik faoliyatni modellashtirish orqali samarali natija beradi.

N.P. Artyushenko tadqiqotlarida mustaqil ta'lim professional kompetensiyani rivojlantirishning strategik vositasi sifatida qaralib, refleksiya va o'z-o'zini baholash jarayonlari kasbiy o'sishning asosiy omili sifatida ko'rsatiladi. Ushbu yondashuvlar mustaqil ta'limning rivojlantiruvchi salohiyatini ochib bersa-da, maxsus pedagogika, xususan surdopedagogika yo'nalishida yetarli darajada moslashtirilmagan.

Shunday qilib, tahlil qilingan ilmiy manbalar bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda mustaqil ta'lim muhim o'rin tutishini ko'rsatsa-da, mavjud tadqiqotlarda mustaqil ta'limning refleksiv, amaliy va kommunikativ komponentlarini yagona metodik tizimga birlashtirish masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur maqolaning ilmiy o'ziga xosligi aynan mustaqil ta'limni surdopedagog kasbiy malakasini shakllantiruvchi integrativ pedagogik model sifatida asoslashga qaratilganligi bilan belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy malakasini shakllantirish jarayonida mustaqil ta'limning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, uning samarali metodlarini ilmiy asoslash hamda amaliy modelini ishlab chiqishga qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika, maxsus pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyalariga tayanadi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari

Tadqiqot quyidagi ilmiy yondashuvlar integratsiyasi asosida olib borildi:

1. **Kompetensiyaviy yondashuv** – talabaning bilimni o'zlashtirishi bilan bir qatorda uni amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirildi;



2. **Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv** – mustaqil ta'limni passiv o'rganish emas, balki faol bilish jarayoni sifatida tashkil etishni nazarda tutdi;
3. **Shaxsga yo'naltirilgan pedagogika** – talabaning individual ehtiyojlari, kasbiy motivatsiyasi va refleksiv imkoniyatlarini hisobga olishni ta'minladi;
4. **Integrativ yondashuv** – surdopedagogika, psixologiya, axborot texnologiyalari va neyropedagogika elementlarini uyg'unlashtirishga asoslandi.

Mazkur metodologik asoslar mustaqil ta'limni kasbiy kompetentlikni shakllantiruvchi tizimli pedagogik jarayon sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy malakasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning mazmuni, tashkil etish shakllari hamda qo'llaniladigan metodlarning samaradorligi tahlil qilindi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy mustaqil ta'lim topshiriqlari ko'proq nazariy bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilsa-da, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan amaliy kompetensiyalarni shakllantirishda yetarli darajada samarali emas.

Kuzatish va pedagogik tahlillar asosida mustaqil ta'lim jarayoniga kasbiy yo'naltirilgan metodlar joriy etilganda talabalarining o'quv faolligi hamda mustaqil fikrlash darajasi oshgani aniqlandi. Xususan, muammoli pedagogik vaziyatlarni yechishga qaratilgan topshiriqlar, keys-tahlil, mini-loyiha ishlari va refleksiv yozma topshiriqlar talabalarining nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lashiga imkon yaratdi. Talabalar real ta'lim jarayoniga yaqin vaziyatlarni tahlil qilish orqali korreksion-pedagogik faoliyat mazmunini chuqurroq anglay boshladilar.

Mustaqil ta'limda videomateriallar, kuzatuv natijalarini tahlil qilish va metodik vazifalarni mustaqil ishlab chiqish kabi faoliyat turlari qo'llanilganda surdopedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan kommunikativ, diagnostik hamda metodik ko'nikmalarining rivojlanishi kuzatildi. Ayniqsa, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayonida individual yondashuvni rejalashtirishga oid topshiriqlar talabalarining kasbiy tasavvurlarini boyitdi.

Olingan natijalar mustaqil ta'limni tizimli tashkil etish quyidagi ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishini ko'rsatdi:

- talabalarda kasbiy motivatsiya va o'z ustida ishlash ehtiyojining kuchayishi;
- pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va muammoli holatlarda yechim topish ko'nikmalarining rivojlanishi;
- mustaqil qaror qabul qilish hamda kasbiy refleksiya darajasining oshishi;
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash malakasining shakllanishi.

Shuningdek, tahlillar mustaqil ta'lim samaradorligi topshiriqlar hajmiga emas, balki ularning metodik jihatdan to'g'ri loyihalashtirilishiga bog'liqligini ko'rsatdi. O'qituvchi tomonidan berilgan aniq yo'riqnomalar, bosqichma-bosqich vazifalar, muntazam teskari aloqa va baholash mezonlarining aniqligi talabalarining kasbiy rivojlanish sur'atini sezilarli darajada oshirdi.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki, mustaqil ta'lim jarayonida muammoli, refleksiv va amaliy yo'naltirilgan metodlardan kompleks foydalanish bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy malakasini shakllantirishda samarali pedagogik mexanizm hisoblanadi. Mazkur yondashuv talabalarining faqat bilim egallashini emas, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorligini ham ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy malakasini rivojlantirish jarayonida mustaqil ta'lim muhim pedagogik omil ekanligini tasdiqladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mustaqil ta'limni an'anaviy shaklda tashkil etish talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilsa-da, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan amaliy kompetensiyalarni to'liq shakllantirish imkonini bermaydi. Shu sababli mustaqil ta'lim mazmunini kasbiy faoliyatga yo'naltirish zarur hisoblanadi.

Tadqiqot davomida muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, keys-tahlil, loyiha faoliyati hamda refleksiv metodlardan foydalanish talabalarining kasbiy fikrlashi, pedagogik tahlil qilish qobiliyati va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Mustaqil ta'lim jarayonining amaliy faoliyat bilan integratsiyalashuvi bo'lajak surdopedagoglarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashga nisbatan ongli kasbiy yondashuvni shakllantirdi.



Natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- mustaqil ta'lim kasbiy kompetensiyani shakllantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi;
- mustaqil faoliyat mazmuni real pedagogik vaziyatlarga yaqinlashtirilganda o'quv samaradorligi oshadi;
- refleksiv va muammoli metodlar talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada rivojlantiradi;
- metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan teskari aloqa mustaqil ta'lim natijadorligini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Surdopedagogika yo'nalishida mustaqil ta'lim topshiriqlarini kasbiy kompetensiyalarga yo'naltirilgan holda qayta loyihalash maqsadga muvofiq.
2. Mustaqil ta'lim jarayoniga pedagogik keyslar, muammoli vaziyatlar va mini-loyiha faoliyatini tizimli ravishda joriy etish zarur.
3. Talabalarning kasbiy refleksiyasini rivojlantirish uchun mustaqil tahlil va o'z-o'zini baholash topshiriqlaridan muntazam foydalanish tavsiya etiladi.
4. Raqamli ta'lim resurslari va videokuzatuv materiallari asosida amaliy vaziyatlarni tahlil qilish metodikasini keng qo'llash lozim.
5. Mustaqil ta'lim natijalarini baholashda faqat yakuniy mahsulot emas, balki talabaning ijodiy yondashuvi va kasbiy fikrlash jarayonini ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, mustaqil ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning amaliy faoliyatga moslashuvchanligini rivojlantirish hamda maxsus ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamarajabova, Z.N. (2019). Maxsus pedagogikada kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Maxmudova, M. (2020). Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
3. Muzaffarova, X.N. (2018). Maxsus ta'lim tizimida pedagogik jarayonni tashkil etish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Nurkeldiyeva, D.A. (2021). Bo'lajak defektologlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi. Pedagogika va psixologiya, №3, 45–52-b.
5. Fazliddinova T. O. A modern approach to future surdopedagogs in the process of independent education //International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices. – 2025. – C. 121-128.
6. Fazliddinova, Teshabayeva Oygul. "A modern approach to future surdopedagogs in the process of independent education." International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices. 2025.
7. Fazliddinova, T. O. (2025, March). A modern approach to future surdopedagogs in the process of independent education. In International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices (pp. 121-128).
8. Dilfuzakhan I. Methodologies for the formation of communication skills of students with hearing impairment in native language lessons //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 5-8.
9. Zakirjanovna R. N. Theoretical foundations of the development of communication skills in primary school children after cochlear implantation //International Journal of Pedagogics. – 2024. – T. 4. – №. 10. – C. 51-54.
10. Sadirova K. Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach //Academia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 9. – C. 27-30.
11. Sadirova, Kamola. "Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach." Academia: An International Multidisciplinary Research Journal 12.9 (2022): 27-30.
12. Sadirova, K. (2022). Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach. Academia: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(9), 27-30.
13. Isroilovna K. D. Technology for improving speech of elementary school pupils with hearing impairment //янги ўзбекистон: инновация, фан ва таълим 10-қисм. – C. 22.
14. Isroilovna K. D. Characteristics of development of children with hearing impairment //Journal of Agriculture & Horticulture. – T. 2. – №. 10. – C. 31.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.